



Received: October 6, 2022
Accepted: December 24, 2022
Available online: December 25, 2022

Umida Dushayeva

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
tayanch doktoranti
Toshkent, O'zbekiston

KOMPARATIV FRAZEOLIGIZMLARNING ISPAN VA O'ZBEK TILLARIDA QO'LLANISH XUSUSIYATLARI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola dunyo tilshunosligida xorijiy va mahalliy olimlarning komparativ frazeologik birliklarga munosabatini aniqlash va tilshunos olimlarning komparativ frazeologizmlar haqidagi nazariy qarashlarini semantik guruhlarga ajratib tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotimizning vazifalari ispan tilida komparativ frazeologik birliklarning berilish usullari va ularni ifodalovchi vositalarni tadqiq qilish, hozirgi zamon ispan tilida eng ko'p qo'llaniladigan komparativ frazeologizmlarning struktur-semantik modellari va komponentlar o'rtasidagi kombinator semantik aloqalarni aniqlashdan iborat. Mazkur tadqiqot ishida qo'yilgan maqsadga erishish va belgilangan vazifalarni bajarishda quyidagi tilshunoslik tadqiqot metodlaridan foydalanildi: kontekstual, komponent, distributiv, struktur-semantik metodlar.

Tadqiqot natijasida tilshunoslikda komparativ frazeologiyaga bo'lgan tadqiqotchilarning nazariy qarashlari va munosabatlari semantik guruhlarga ajratilgan. Komparativ frazeologiyaning formal jihatdan mos keluvchi individual hosilalardan ajratib turishga imkon berishi mumkin bo'lgan frazeologik qiyoslashlarni identifikatsiyalashning qat'iy mezonlari ishlab chiqilmaganligi, frazeologik qiyoslashlarni sintagmatik jihatdan ko'rib chiqishga va ularning matnda ishlashining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga yetarli darajada e'tibor qaratilmaganligi aniqlandi.

Frazeologik qiyoslashlarda komparativ sifatida atoqli otlar ham qo'llanilishi mumkin. Ularning ayrimlari go'yo turdosh ma'noga va shu bilan birga, bir vaqtlar tarixiy shaxslarga, badiiy adabiyotlarning hamda yunon-rim afsonalarining kulguli tipdagi qahramonlariga xos bo'lgan sifatni

Umida Dushaeva

PhD Student, Uzbekistan State World
Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: umida.77.ud@gmail.com

SPECIFIC USE OF COMPARATIVE PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE SPANISH AND UZBEK LANGUAGES

ANNOTATION

The purpose of the article is to ascertain the opinions of foreign and local researchers on comparative phraseological units in world linguistics. The author also analyzes the theoretical perspectives of linguists on comparative phraseology by dividing them into semantic categories. Our research aims to investigate the ways in which comparative phraseological units are used in Spanish and the methods in which they are expressed, as well as the combinatorial semantic relations between components and the structural-semantic models of comparative phraseological units that are most frequently used in Spanish today.

Contextual, component, distributive, and structural-semantic methods were employed in the study to accomplish the objectives and perform the tasks. As a result of the study, the theoretical views of researchers on comparative phraseology in linguistics were divided into semantic groups.

It was defined that comparative phraseology has not developed strict criteria for the identification of phraseological comparisons, which can enable to distinguish them from formally corresponding individual derivatives, and less attention has been paid to consider phraseological comparisons syntagmatically and to study the specific features of their operation in the text.

In phraseological comparisons, proper nouns can also be used as comparatives. Some of them seem to connote a common meaning and, meanwhile, a quality that was once characteristic of historical figures, comic characters of fiction and Greco-Roman legends.

It was observed that the nouns used in phraseological comparisons have a similar

konnatatsiya qilishi namoyon bo'ldi. Frazeologik qiyoslashlarda ishlatiladigan otlar o'xshash semantik tabiatga egaligi va ular konnatativ otlar hisoblanib, til jamoasi a'zolarida ushbu otlarga hos bo'lgan belgilar bilan assotsiatsiyalanishi kuzatildi. Predmet va obyektiv borliqning hodisalarini identifikatsiya qiluvchi otlardan farqli ravishda yuqorida nomlari zikr qilingan otlar nafaqat denotativ, balki signifikativ ma'noni ham ifodalaydi.

Kalit so'zlar: komparativ frazeologiya, struktur-semantik, denotat, mavhum otlar, struktural-kompozitsiya, morfologik-sintaktik, leksik-semantik, badiiy-estetik.

KIRISH

Uzoq tarixiy rivojlanish davomida shakllantirilgan va xalqning kuzatishlari natijasi hisoblangan til qiyoslashlar orqali shaxs yoki predmetni ohorli, o'ziga xos sharhlar orqali ifodali va aniq tavsiflab bera oladi. Ushbu til birliklari ko'plab odamlarning fikrlariga muvofiq keladilar, o'quvchilarga tushunarli bo'lib, obrazni qayta interpretatsiya qilishni talab qilmaydi. Aynan shuning uchun ular an'anaviy xarakterga ega bo'ladi. Umuman, qiyoslash va, xususan, til qiyoslashlari muammosi nafaqat mamlakatimiz tadqiqotchilarining, balki chet ellik hamkasblarimizning qiziqishini uyg'otishda davom etmoqda. Masalan, 1958-1975-yillar oralig'ida tilshunoslikda komparativ frazeologiya muammolarlariga bag'ishlangan bir qator ishlar paydo bo'ldi. Komparativ frazeologik birliklar /KFB/ deganda olimlarning ko'pchiligi nutq akti jarayonida so'zlovchilar tomonidan yaratilmaydigan, balki tilning lug'at tarkibida tayyor birliklar sifatida mavjud bo'lgan hamda muloqot davomida shaklan o'zgarmagan holda qo'llanadigan frazeologik yoki an'anaviy qiyoslashlarni ta'kidlashadi. Masalan: *negro como boca de lobo, llorar como una Magdalena, mas bueno que el pan, etc.*

Hozirgi kunda frazeologiyaning hajmi, frazeologik birlikning /FB/ mohiyati va uning asosiy belgilari, shuningdek, idiomatiklik hamda frazeologik muammolari tadqiqotchilar tomonidan turlicha tushuniladi, an'anaviy qiyoslashlarni frazeologiyaga kiritish haqidagi fikrlarda ham yakdillik mavjud emas. Tadqiqotchilarning bir qismi faqat "nihoyat darajada frazeologiyalangan frazeologik qiyoslashlarni" komparativ frazeologiyaga kiritadilar, boshqalari esa *murdadek oppoq, rangi baayni (xuddi) murda, qordek oppoq, yosh boladay yig'lamoq* kabi qiyoslashlarni frazeologizmlar deb hisoblaydilar va h.k. Ta'kidlash joizki, mualliflarning ko'pchiligi N.N. Amosova, I.I. Chernisheva, A.V. Kunin, V.I. Orlova, Z.G. Burdina, N.M. Sidiyako, A.G. Nazaryan, R.A. Glazirin va boshqalar frazeologik qiyoslashlarni frazeologik darajadagi birliklar deb baholaydilar. Frazeologik qiyoslashlarning frazeologikligi, ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, komponentlar tarkibining frazeologikligi va nutqda aks etishidan iboratdir, so'z birikmasining semantik qayta o'zgarishlari bilan kelmaydigan kontekst frazeologikligining o'zi birikmani frazeologizmga aylantirmaydi. Qolaversa, masalaning murakkabligi so'z birikmasining frazeologiklik darajasini yoki uning alohida shakllanganligini tan olishdan iborat bo'libgina qolmay,

balki frazeologik komparativ strukturani semantik qayta o'zgartirish muammosini hal qilishdan ham iboratdir.

Frazeologik qiyoslashlarning frazeologiyalashuv jarayoni tadqiqotchilar tomonidan turlicha tushuniladi. Misol uchun, V.M. Ogoltsev komparativ strukturalarning frazeologiyalashuv jarayonini ularning leksikallashuv darajasi bilan bog'laydi. Uning fikriga ko'ra, frazeologik qiyoslash konstruksiyalarining leksikallashuvi har doim qiyoslashning mantiqiy elementlarining buzilishi, komparativ munosabatlarining susayishiga yoki yo'qolishiga olib keladi.

I.I. Chernishevaning fikricha, ko'rib chiqilayotgan birliklarning frazeologik qiyoslashuvi shundan iboratki, frazeologik komparativ strukturaning birinchi va ikkinchi komponentlarining o'zaro munosabati natijasida qo'shimcha ma'no paydo bo'ladi. Qiyoslash va kuchaytirish elementining o'zgarishi yuqorida zikr qilingan birliklarning frazeologiyalashuv jarayoni uchun xos bo'lgan xususiyat hisoblanadi.

Boshqa tadqiqotchilarning hisoblashlaricha, qiyoslash oboroti frazeologik birikmaga aylanib, o'zining ma'nosini o'zgartiradi, qiyoslash ma'noli frazeologik birikma esa bevosita jarayonning, harakatning, holatning sifatlaydi. Frazeologiyalashuv jarayonida qiyoslash o'zining solishtirish ma'nosini to'liq yoki qisman yo'qotishi haqida ko'plab mualliflar yozadilar. Shunday qilib, komparativ frazeologiya borasida tadqiqot olib borgan bir qator mutaxassislar "qo'shimcha ma'noning" /I.I. Chernisheva/, "qo'shimcha tushunchaning yoki intensivlik tushunchasining" /Z. G. Burdina/ paydo bo'lishini, "qiyoslash komponentida predmetlik ma'nosining susayishini" /V. I. Orlova/, qiyoslash komponenti bilan umumlashtiruvchi ma'no kasb etishini /A. G. Nazaryan/ komparativ strukturalarda frazeologiyalashuv jarayoni haqida mulohaza qilishga yetarli asos deb biladilar. Hozirgi paytda frazeologik birliklarni ajratib ko'rsatish prinsiplarining izchil tizimi yo'qligi, frazeologiklik tushunchasining noaniqligi va ichki qarama-qarshiligi ushbu muammoni hal qilishga imkon bermaydi. I.I. Chernishevaning "komparativ frazeologizmlar aslini olganda hali kam tadqiq qilingan. Ularni frazeologiyaga kiritish imkoniyati, tashkiliy-semantik xususiyatlari va frazeologik o'xshashliklarga qo'shish qo'shimcha tahlilga muhtojdir", deb ta'kidlagani bejiz emas.

Til qiyoslashlari muammosi ilgaridan slavyan, roman va german tillari mutaxassislarining ishlarida uzoq ilmiy tarixga ega bo'lganligiga va frazeologik qiyoslashlarning o'ziga xosligi va struktur-semantik xususiyatlari haqida guvohlik beruvchi ancha-muncha material to'planganligiga qaramasdan, ushbu til birliklariga tegishli bo'lgan bir qator masalalarni yana tadqiq etish zaruriyatini uyg'otadi. Tan olish kerakki, ko'p prinsipial masalalarni tushinishda muammo bilan bog'liq sezilarli farqlar mavjud. Ushbu birliklarni ular bilan formal jihatdan mos keluvchi individual hosilalardan ajratib turishga imkon berishi mumkin bo'lgan frazeologik qiyoslashlarni identifikatsiyalashning qat'iy mezonlari ishlab chiqilmagan. Frazeologik qiyoslashlarni sintagmatik jihatdan ko'rib chiqishga va ularni matnda qo'llashning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga yetarlicha e'tibor qaratilmagan.

ASOSIY QISM

Mamlakatimiz tilshunosligida ispan poetik nutqi /metafora va taqqoslash/ faqat bitta nomzodlik dissertatsiyasi doirasida tadqiq qilingan. Ispan nasrida qo'llangan

frazelogik qiyoslashlar esa hanuzgacha maxsus tadqiqot predmeti bo'lmagan. Shu sababli ham ispan tili frazeologik qiyoslashlarini lingvistik o'rganish ma'lum nazariy va amaliy ahamiyatga ega. An'anaviy qiyoslashlarning lingvistik tahliliga oid ma'lumotlari sotsiolingvistika, stilistika, tarjima nazariyasi va amaliyoti kabi bir-biriga yaqin sohalarida hamda oliy o'quv yurtlari va maktablarda chet tilini o'qitish metodikasida ishlatilishi mumkin.

Hozirgi zamon tilshunosligida komparativ frazeologizm yoki turg'un o'xshatmalar terminining turli tillarda qo'llanishiga doir ta'riflar va nazariy qarashlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Komparativ, bu – sifatning, u nomlayotgan oddiy darajadagi belgining o'ziga nisbatan ortiq darajada ifodalanishini bildiradigan shaklidir. Komparativ – oddiy darajada nomlangan belgi bilan qiyoslaganda belgi namoyon bo'lishining kuchli darajasini bildiruvchi sifatning va ravishning grammatik kategoriyasidir [Shvedova, 1999; 288].

2. Qiyoslash darajalari – asliy sifatlarining va ravishlarning predmetlarga yoki ish-harakatlarga xos bo'lgan sifatidagi nisbiy farqni yoki ustunlikni ifodalovchi grammatik kategoriyadir [Telenkova, 1985; 341].

Aytish joizki, qiyoslash idrok etish va real olamni bilish bo'lib, ularni o'zida namoyon etadi. Uning belgilari – analitik kuzatish va atrof-muhitni qurshab olgan real olamdagi obyektlar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlik natijalari uchun aniq ta'riflar mavjud. Demak, aniq qiyosiy tuzilmalar asosida birlamchi tasavvur – kuzatish, qiyoslash esa idrok qilish natijasi hisoblanadi. S.Gutieres Ordones ta'kidlaganidek, “inson hamisha qiyoslashga intilish bilan qurshab olingan: tadqiqot olib borish, o'lchash-chamalash, bilib olish, demak, qiyoslash...” [Gutierrez, 1997; 57].

Tilshunoslar ko'p ta'kidlaydiki, qiyoslash xususiyati tabiiy ravishda insonning bilish jarayoniga kiradi va tilning shakllanish vositalaridan biriga aylanadi. A.A. Potebnya fikricha, “olamni bilish jarayoni – bu qiyoslash jarayonidir” [Potebnya, 1990; 204].

“Qiyoslash, ya'ni bir tilni ikkinchisi bilan chog'ishtirishdan ko'zda tutilgan maqsad ularning munosabatlarini imkon qadar ochib berish; real olamni qiyoslash orqali turli xil lisoniy bog'liqlik amalga oshiriladi” [Filosofskiy ensiklopedicheskiy slovar, 1983; 623], bu yerda ko'zda tutilgan asosiy maqsad predmet yoki real hodisalarni bir-biriga o'xshash va farq qiluvchi belgilarini qiyoslash yordamida aniqlab berishdir.

Professor V.Ogoltsev, L.A. Lebedova va V.Mokiyenkolar tomonidan turg'un o'xshatmalarining rus tilidagi izohli lug'atlari yaratilgan bo'lib, ularda minglab birliklar izohlangan. Rus tilshunosligida turg'un o'xshatmalar bo'yicha qilingan ilmiy tadqiqotlarni umumlashtirgan holda, quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. O'xshatishlarning Struktural-kompozitsion xususiyatlari o'rganilgan (M.Arynov, F.V. Dautiya, K.M. Gulumyans).

2. O'xshatishlarning morfologik-sintaktik xususiyati o'rganilgan (E.S. Voynova, N.S. Dmitriyeva, V.I. Kononenko, V.V. Pavlova, S.V. Postnikova, Y.N. Savvina, M.I. Cheremisina).

3. O'xshatishlarning leksik-semantik xususiyatlari o'rganilgan (V.M. Ogoltsev,

Y.M. Parksheyan, Y.N. Savvina, M.I. Cheremisina).

4. O'xshatishlarning badiiy-estetik (poetik) xususiyatlari o'rganilgan (B.A. Be-lova, S.M. Mezenin, M.I. Cheremisina, A.G. Nazaryan).

5. O'xshatishlarning lingvokulturologik xususiyati o'rganilgan (Maslova).

6. O'xshatishlarning kognitiv xususiyati o'rganilgan (G.L. Denisova).

Rus tilshunoslaridan L.A. Lebedova turg'un o'xshatmalarning mantiqiy asoslari, tarkibiy tuzilishi haqida so'z yuritib, "Aniq ta'kidlashimiz mumkinki, o'xshatish – bu faqatgina tushuncha yoki stilistik usul bo'lib qolmasdan, balki ma'no va o'ziga xos ifodalash shakliga ega bo'lgan (tilning boshqa birliklari kabi) o'ziga xos til hodisasi, o'ziga xos lingvistik birlik" sifatida baholaydi [Lebedova, 2003].

G.L. Denisovaning yozishicha, "Komparativ birlik harakat mexanizmini batafsil tekshiradi, belgilarni aniqlaydi va xulosa qismida olingan bilimlar mexanizmi sifatida komparativ birlik verbal stimul vazifasini bajaradi. Komparativ birlikning doimiy nutqda qo'llanishi shu bilan tushuntiriladiki, qiyoslash batafsil tekshirishga intiladi, lisoniy belgilar haqidagi haddan tashqari umumlashgan taassurotlarni, so'zlarni aniqlashtiradi [Denisova, 2009; 6]. Ta'kidlash lozimki, o'xshatishlar, metaforalar, frazeologizmlar tilning boyligini va o'ziga xosligini ko'rsatib beruvchi manba bo'lib, bu boradagi tadqiqotlar til ilmidagi doimo dolzarb bo'lib kelgan. Rus tilshunosligida bu mavzudagi qilingan tadqiqotlarning juda ko'p ekanligi, hatto o'xshatishlarning bir qancha izohli, izohli-tematik lug'atlarining yaratilganligi e'tiborga molik.

O'zbek tilshunosligida ham o'xshatishlar haqida shu kabi ko'plab tadqiqotlar qilinishiga ehtiyoj juda katta [Babanazarova, 2020; 181-183]. O'xshatishlar tilning eng ajoyib mantiqiy figuralaridan biri bo'lib, asrlar davomida olimlar tomonidan mantiq nuqtayi nazaridan ham, poetika va ritorika nuqtayi nazaridan ham o'rganib kelingan. Paninni grammatikasidan boshlab (eramizdan oldingi IV asr) qadimgi hind poetik-grammatik traktatlarida o'xshatishlar poetik figura sifatida o'rganilgan [Mahmudov, Xudoyberganova, 2013; 5]. Ko'pchilik tilshunoslar ko'chma ma'noli so'zlar, o'xshatish va metaforalarga Arastu davridan boshlab katta e'tibor qaratilganligini ta'kidlashadi. Rus tilshunosligida turg'un o'xshatishlar ancha keng o'rganilgan bo'lib, ko'plab tilshunoslarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Chunki o'xshatishlar "xalqning o'ziga xos ko'rish va idrok yo'sini, obrazli tafakkur va taxayyul intizomini ham aks ettiradi" [Mahmudov, 2011; 21].

O'zbek tilshunosligida ham o'xshatishlar bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilgan bo'lib, ularda turg'un o'xshatmalar turli jihatdan tadqiq etilgan. O'xshatishning mohiyati, ta'rifi, tasnifi, til birligi sifatidagi xususiyatlari bo'yicha fikrlar xilma-xil. Jumladan, M.Mukarramov "O'zbek tilida o'xshatish" nomli kitobida o'xshatish komponentlari, o'xshatish turlari haqida so'z yuritib ekan, o'xshatish uchta komponentdan: o'xshatiluvchi obyekt, o'xshovchi obraz va o'xshatish belgidan iborat bo'lishini ta'kidlaydi [Mukarramov, 1976; 7]. O'xshatishning tarkibiy qismlari M.Yoqubbekova tomonidan o'xshatish asosi, o'xshatish timsoli, o'xshatish vositasi va o'xshatish belgisi deb nomlagan [Yoqubbekova, 2003; 16]. N.Mahmudov esa o'xshatishlarning to'rt unsurdan: o'xshatish subyekti, o'xshatish etaloni, o'xshatish asosi va o'xshatishning shakliy ko'rsatkichidan tarkib topishini ta'kidlaydi [Mahmudov, 2011; 20]. Ko'rinadiki, ilmiy adabiyotlarda o'xshatishning

tuzilishi to'g'risida bir necha xil fikrlar mavjud. M.Mukarramov o'xshatishlarning sezgilar va tasavvurlar orqali yuzaga kelishini hisobga olib, konkret va abstrakt; qo'llanilish jihatdan: an'anaviy va individual; mazmuniga qarab: inkor, kinoya, satirik va chog'ishtiruvli; komponentlariga ko'ra: to'liq, to'liqsiz, vositasiz, sodda, murakkab, tarkibli, uzilgan, ketma-ket o'xshatishlar kabi turlarga bo'linishini yozadi [Mukarramov, 1976]. R.Qo'ng'urov esa turg'un va erkin o'xshatishlarni ta'riflash bilan birga, uning mumtoz adabiyotdagi bir qancha turlarini, xususan, ochiq, shartli, teskari, yashiringan, ketma-ket o'xshatishlarni sanab o'tadi [Qo'ng'urov, 1977; 40]. U o'zining "O'zbek tilining tasviriy vositalari" kitobida o'xshatishni sintaktik hodisa sifatida baholaydi: "O'xshatish eng qadimgi tasviriy vositalardan bo'lish bilan birga, eng sodda va ko'p ishlatiladigan, tez-tez qo'llaniladigan sintaktik hodisa hisoblanadi" [Qo'ng'urov, 1977; 41]. Bundan tashqari, tilshunos o'xshatishlar obyektiv olam haqida tasavvur hosil qilishimizda katta ahamiyatga ega bo'lishi bilan birga, u yoki bu hodisaga so'zlovchining o'z subyektiv munosabatini bildirishida ishtirok etishini ta'kidlaydi: "So'zlovchi bir narsani ikkinchi bir narsaga qiyoslar ekan, bu bilan u faqat tasvirlanayotgan narsa haqida tasavvur hosil qilishnigina o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaydi, balki odamlar ana shu o'xshatilayotgan narsaga nisbatan o'z munosabatini ham bildiradi, ya'ni u yoki bu hodisani o'z nuqtayi nazaridan baholaydi" [Qo'ng'urov, 1977; 35].

M.Yoqubbekovanning "O'zbek xalq qo'shiqlarida o'xshatish" nomli monografiyasi o'zbek xalq qo'shiqlaridagi eng faol badiiy tasvir vositalaridan biri – o'xshatishning xalq qo'shiqlaridagi lisoniy badiiyatni tashkil etuvchi unsur sifatidagi tabiatini o'rganishga bag'ishlangan. Unda o'xshatish va uning komponentlari tarkibi, qurilishi, leksik, semantik, grammatik, poetik xususiyatlari bilan bir butunlikda tahlil etilib, ana shu uzviylik nuqtayi nazaridan talqin etiladi.

Tildek muhtasham bir hilqat o'z sirlarini hammaga ham ochavermaydi. Faqat tilning nozik tovlanishlariga o'tkir va teran nigoh, zakiiylik bilan yondashgan tilshunosgina undagi ma'no evrilishlariga yo'l ocha oladi. Taniqli tilshunos N.Mahmudovning o'xshatishlar borasida ana shunday zakiiylik bilan bildirgan mulohazalari til ilmida ayni mavzuda ko'plab tadqiqotlar olib borishga turtki bera oladi. Professor N.Mahmudov "O'xshatishlar – obrazli tafakkur mahsuli" maqolasida o'xshatishlar va uning mohiyati, o'xshatish komponentlari, turlari, uning metafora va epitet kabi badiiy tasvir vositalaridan farqi haqida qimmatli fikr-mulohazalar bildiradi. Ayniqsa, tilshunos olimning o'zbek tilidagi o'xshatishlarning izohli lug'atini tuzish borasidagi qilgan ishlari tahsinga loyiq. Zero, tilshunos olimning o'z ta'biri bilan aytganda, "So'zlarni, aniqrog'i, muayyan davr so'zlarini surati, siyrati va butun sinoati bilan salomat saqlaydigan sandiq, albatta, lug'atlar ekanligini isbotlashning keragi yo'q" [Mahmudov, 2012; 37]. Zahmatkash olimimizning mashaqqatli va muntazam izlanishlari, mehnatlari mahsuli sifatida o'zbek tilshunosligida birinchi marta "O'zbek tili o'xshatmalarining izohli lug'ati" (hammuallif D.Xudoyberganova) yaratildi. Lug'atda o'zbek tilidagi 530 dan ortiq turg'un o'xshatmalar bir joyga to'planib, tizimlashtirilib, mazmunan, lisoniy va lingvokulturologik jihatdan izohlangan.

Bugungi kun tilshunosligiga antropotsentrik paradigmaning keng tadbiiq qilinishi o'xshatishlarni ham lingvokulturologik va kognitiv jihatdan o'rganishga bag'ishlangan

yangi ilmiy ishlarning yuzaga kelishiga zamin yaratdi. D.Xudoyberganovanning “Matnning antropotsentrik tadqiqi” monografiyasi zamonaviy tilshunoslikda antropotsentrik paradigma doirasida shakllangan asosiy yo‘nalishlar – kognitiv lingvistika, psixolingvistika va lingvokulturologiya yo‘nalishlarini o‘zida tutashtira olgan dastlabki yirik tadqiqot hisoblanadi [Usmonova, 2013; 99]. Olima monografiyaning IV bobida o‘xshatishlar haqida fikr yuritib, o‘xshatish uchun etalon sifatida tanlangan so‘zlar ham o‘zbek tilining lingvokulturologik xususiyatlarini ko‘rsatuvchi til birligi ekanligini misollar bilan dalillaydi [Xudoyberganova, 2013; 95].

Obrazli frazeologik qiyoslashlarda, qiyosiy-chog‘ishtirmalardan farqli ravishda, ikkita mantiqan birga mavjud bo‘la olmaydigan denotatlarning o‘zaro bog‘lanishi mavjud. Masalan, “*Bu qiz onasi kabi yaxshi kuylaydi*” deganda biz aslida va mantiqan qiyoslanadigan ikkita tushunchani – “qiz” va “ona”ni ular uchun umumiy bo‘lgan “yaxshi kuylay olish” belgisi asosida solishtiramiz.

Ushbu belgi solishtirilayotgan tushunchaning tabiatiga mos. Biroq qiyoslash uchun voqelikning turli sohalaridan /sinflardan, paradigmalardan, predmetlar guruhidan/ inson – hayvon, inson – predmet, inson – mavhum tushuncha, hayvon – predmet, hayvon – tabiat hodisasi va h.k. kabi denotatlar jalb qilinsa, ikkita mazmuniy nuqtai nazarni, ikkita mantiqan qiyoslab bo‘lmaydigan tushunchalarning mavjudligini nazarda tutadigan obrazlilik paydo bo‘ladi. “*Bu qiz to‘rg‘ayga o‘xshab kuylaydi*” jumlasida denotatning belgisi haqida obrazli tasavvurni beradi va tinglovchining yoki o‘quvchining ongida assotsiatsiyalarning ikkita tizimini uyg‘otadi: inson – qush, an‘anaga ko‘ra qiyoslanayotgan tushunchaga xos bo‘lgan belgi qo‘shilayapti. Modomiki frazeologik qiyoslashlar tadqiqot obyekti hisoblanar ekan, unda ularni individual, qiyoslashlardan farqlash va frazeologik qiyoslashlarni identifikatsiyalash mezonlarini aniqlashni prinsipial jihatdan muhim masala deb hisoblash mumkin. Shubhasiz, tashqi belgilar frazeologik qiyoslashlarni aniqlash uchun farqlash belgisi bo‘lib xizmat qila olmaydi, chunki ular rasman individuallardan hech qanday jihati bilan ajralib turmaydi. Demak, tadqiq qilinayotgan til birliklarining ichki belgilari alohida e‘tiborga ega.

Ushbu muammoning murakkabligi uni hal qilish yo‘llarining bir xilda emasligiga olib keladi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha bunda mantiqiy mezonni /individual taqqoslash, tasavvur bilan bog‘liq, an‘anaviy esa – tushuncha bilan/ ishlatadi, boshqalari frazeologik va erkin qiyoslashlarni ulardagi stilistik ma’lumotning soni bilan farqlaydi, uchinchilari til qiyoslashlarining komparativ xususiyatidan kelib chiqadi, to‘rtinchilari frazeologik o‘xshatmalarda ikkinchi komponentning, ya’ni umumlashtiruvchi ma’no kasb etadigan komparativ otning qiyoslash mazmuni qisman yo‘qoladi, deb hisoblaydi, beshinchilari asosning va remaning mualliflik qiyoslashlaridagi aloqasini tasodifiy va frazeologiklikda – doimiy xarakterini qayd qiladi, barcha tilga oid qiyoslashlarni va mualliflik qiyoslashlarni mezonni deb eng avvalo, qiyoslash deb hisoblaydi. V.I. Martinevskiy ushbu muammoni hal qilishda tilning ichki qonuniyatlarini, xususan, aniqlik va noaniqlik kategoriyasini, ya’ni artiklning qiyoslashlarda qo‘llanilishining turli holatlarini ishlatishga harakat qildi. Tadqiqotchilarning mualliflik qiyoslashlari va frazeologik qiyoslashlarning bunday til ko‘rsatkichi yordami bilan bir-biridan farqlashni aniqlashga urinishlari, muvaffaqiyatsizlikka mahkum, chunki materialni

kuzatish shundan dalolat beradiki, frazeologik qiyoslashlarda ham noaniq, ham aniq va nol shaklli artikllarning ishlatilishi mumkinligi bois, artikl u yoki bu qiyoslashning ma'lum/mualliflik yoki tilga oid/ turkumga tegishli ekanligining universal ko'rsatkichi bo'la olmaydi.

Ta'kidlash muhimki, ushbu muammoga yondashuvning barcha rang-barangligida yuqorida nomlari zikr etilgan tadqiqotchilar fikr mulohazalarini bildirishgan. Aslini olganda, taqqoslash uchun jalb qilinayotgan qiyoslashlarning ikkinchi komponenti komparativning semantik tabiatidan kelib chiqadi.

Ehtimol, qiyoslashlarni mualliflik frazeologizmlari va tilga oid frazeologizmlarga ajratish konnotativlik – nokonnotativlik semantik oppozitsiyaga asoslangan. J.Mill tomonidan taklif qilingan otlarni nokonnotativ va konnotativ turlarga ajratadi va ushbu muammoni hal qilishda ishlatilishi mumkin. Ikkita denotatni solishtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan o'xshashlik alomatining oldindan aytib berilishi va uning fakultativ ifodalanishi shu bilan izohlanadiki, frazeologik qiyoslashlarda komparativ sifatida faqat konnotativ nomlar ishlatilishi mumkin, ular faqat voqelikning predmetini atabgina qolmay, balki unga xos bo'lgan qandaydir ma'lum sifatlarni ham bildiradi.

Frazeologik qiyoslashlarda ifodalangan otlar o'zlari konnotatsiya qilayotgan sifatlarning etalonlari sifatida voqelanadi. Bular ramz-so'zlar bo'lib, ular ham insonga, ham tashqi olam predmetlariga xos bo'lgan sifat va belgilarni yorqin, bo'rttirib ifoda qiladi: *Numerosos objetos materiales se suelen transformar en simbolos de naturaleza espiritual. Por ello, el simbolismo ha penetrado, desde siempre, en las raíces del idioma: el mar es profundo, u profundos son tambien ciertos pensamientos; la miel u el azucar son dulces, u el enamorado halla este sabor, metaforicamente, a la sola presencia del ser amado...*

Mavhum otlarning bir qismi ham konnotativ bo'lib qolishlari mumkin: *dia sin pan, Pascuas, mundo, peste, alma en rena, santo advenimiento, Evangelio, etc. Angel, santo, Dios, diablo, querubin, demonio, basilisco* kabi birliklar mavhum otlarning kichik turlaridan biri bo'lgan, aniq va mavhum otlar o'rtasida oraliq o'rinni egallovchi irreal (noreal) (haqiqatda yo'q) otlardir. Quyida frazeologik qiyoslashlarda komparativlar sifatida ishlatiladigan otlarning qanday semantik kategoriyalari konnotativlikni yuzaga keltirishini ko'rib chiqamiz. Aytish kerakki, ispan tili frazeologik qiyoslashlarda uchraydigan konnotativ otlarning aksariyati aniq turdosh otlarga mansubdir. Bular ko'pincha hayvonlar, o'simliklar, predmetlar va tashqi olam hodisalari, inson faoliyati bilan bog'liq predmetlardir, masalan: *abeja, aguila, anguila, armiño, asno, cabra, cordero, culebra, delfin, hormiga, jilguero, leon, mula, liebre, ostra, pajaro, pez, raton, ruisenor, salamandra, serpiente, tigre, toro, zorro, amapola, azucena cereza, granada, hoja, hongo, limon, manzana, roble, rosa, relámpago, rayo, tapia, estatua, sol, casa, roca, brasas, reloj, castillo, cueva, espejo, pelota, agua, alabastro, betun, fuego. hierro, humo, huracan, luz, mar, nubes, oro, piedra, rubi, etc.*

Frazeologik qiyoslashlarda komparativ sifatida atoqli otlar ham ishlatilishi mumkin. Garchi atoqli otlar semantik jihatdan kam va qandaydir ma'lumotni bildirmasligi ma'lum bo'lsa-da, ularning ayrimlari go'yo turdosh ma'noga va shu bilan birga, bir vaqtlar tarixiy shaxslarga, hajviy qahramonlarga, badiiy asarlarning hamda yunon-rim afsonalarining qahramonlariga xos bo'lgan sifatni konnotatsiya

qiladilar.

Ma'lum alomatlarini konnotatsiya qiluvchi otlarning – ramzlarning bir qismi u yoki bu til jamoasining a'zolariga yaxshi ma'lum. Ispan tilida antik va bibliyaviy qatamlar sezilarli o'rin egallaydi, masalan: *“Salomon es el simbolo de la sabiduria: Mas sabio que Salomon”*. *Yob, de la paciencia... Sanson, de fuerza: “Mas fuerte que Sanson”*. *Judas, traicion... Magdalena, pecado u arrepentimiento. Todos ellos han hecho proverbial el rasgo mas conocido de su vida o caracter”*. Atoqli otlar komparativ sifatida keladigan qiyoslashlar orasida eng chastotaligi quyidagilardir: *mas falso que Judas, fuerte como Hercules, tener mas fuerza que Sanson, llorar como Magdalena, mas viejo que Matusalen, mas malo que Cain, mas feo que Tito, mas ladrón que Caco*.

Badiiy asarlardan o'zlashtirib olingan obrazlar ham frazeologik qiyoslashlarda uchray turadi: Cid, Sancho, Quijote. Boshqa ismlar – ramzlar /tarixiy shaxslar, kulgili tipdagi qahramonlar/ ispan tilining zamonaviy sohibi uchun yaxshi ma'lum emas. Yashirin ma'noni, ushbu ismlarning etimologiyasini bilmasdan turib, qiyoslashning ma'nosini tushunish qiyin, shu sababli ushbu birliklarni ishlatishda nutqda til birligining ma'nosini bexato aniqlash imkonini beradigan o'xshashlik belgisi albatta ishtirok etadi: *saber mas que Merlin, saber mas que Cardona, mas listo que Cardona, saber mas que Lepe (Lepe, Lepijo y su hijo), mas feo que Picio, mas feo que Carracuca, mas perdido que Carracuca, tener mas orgullo que don Rodrigo en la horca, etc.*

Darhaqiqat, o'xshatishlar – har bir xalqning lingvomadaniy boyligi bo'lib, ular milliy dunyoqarash, dunyodagi predmet, hodisa va harakatlarni milliy tasavvurlarga ko'ra taqqoslash, qiyoslashdir [Usmonova, 2019; 102].

K.A. Sokolovanning maqolasida ispan tilida “qizil” komponenti bilan kelgan komparativ frazeologik konstruksiyalar g'arb tillari (fransuz va italyan) doirasida chog'ishtirma tadqiq qilingan. Tahlil uchun ranglarni ifodalovchi turli yo'nalishdagi matnlar qo'llangan. Tadqiqotni olib borishda muallif shunday xulosaga keladiki, qizil rangni ifodalovchi tadqiqot obyekti uchta til uchun o'ta keng qamrovli va variativlik xususiyatga ega. Ispan tilida qizil rangini ifodalovchi 19 ta etalon-obyekt mavjudligi aniqlangan: *rojo como: el tomate – pomidor; la acerola – do'zana, la amapola – mak, el sol – quyosh* va boshq. Aytish joizki, K.A. Sokolova o'z maqolasida qiyoslash uchun etalon sifatida hayvonlar leksikasi, o'simlik dunyosi va real olamni olgan. Masalan, dissertant ispan va rus tillarida quyidagi komparativ frazeologik birliklarni misol sifatida tahlilga tortgan: *Nos maravillaba encontrar algun cangrejo de color rojo como el coral, tan escasos como son los albinos entre los humanos* (<http://corpus.rae.es/creanet.html> Delibes de Castro). – Мы удивлялись, когда находили какого-нибудь краба, красного, как коралл, ведь они такие же редкие, как альбиносы среди людей [Sokolova, 2014]

Ispan tilidagi komparativ frazeologizmlarni tasniflashning asosiy prinsiplari boshqa frazeologik birliklarning semantikasi va strukturasi, pragmatikasi kabidir. Chunki komparativ frazeologiya til frazeologik tizimining qismi hisoblanadi, hamda uning birliklari bu tizimning birliklari bilan umumiy jihatlarga egadir. Biroq KFB (komparativ frazeologik birliklar)ning strukturasi va semantikasi ularni frazeologik birliklarning boshqa razryadlari orasidan ajratishga imkon beradigan o'ziga xos farq

qiluvchi xususiyatlari mavjud [Kazancheva, 2012; 18].

A.F. Kazancheva fikricha, KFBni tasniflash ikkita mezon asosida amalga oshirilishi kerak: komparat nima bilan qiyoslanadi (semantik tasnif) va KFB nimani tasvirlaydi (funksional tasnif). Shuningdek, komparat qaysi leksik-semantik guruhga qarashli ekanligini aniqlash uchun A.F. Kazancheva komparativ frazeologik birliklarni bir nechta semantik guruhlariga ajratib tahlil qilgan. Jumladan: 1) KFBni o‘simliklar dunyosi bilan va 2) KFBni uy va yovvoyi hayvonlar bilan qiyoslagan [Kazancheva, 2012; 103]. A.F. Kazancheva lisoniy olam manzarasida ispan va rus tillarini qiyoslaganda, taqqoslashni davom ettirib, bir qator sinonimlarda u yoki bu nominatsiyani tanlashda tilning nozik tomonlarini ko‘rmaslik mumkin emas, deb ta’kidlaydi. Masalan, burro (eshak) kabi, hayvon uzoq vaqt davomida shikoyat qilmasdan ishlash qobiliyatiga moyilligi bilan bog‘liq: *trabajar como un burro – eshakdek ishlamoq*. Asno so‘zi burro so‘ziga sinonim hisoblanadi, yuqoridagi so‘zlar orqasida boshqa hayvonlarga xos boshqa xususiyatlar, jumladan, axmoqlik va o‘jarlik, qaysarlik ma’nolari aks etadi: *terco como un asno – eshakdek o‘jar; estúpido como un asno – eshakdek ahmoq*. Ya’ni rus tilida eshakdek o‘jar, qaysar, axmoq o‘xshatishlari mavjud, shu bilan birga, *eshakdek ishlamoq* komparativ frazeologik birikmasi ham qo‘llanadi. Bunday o‘xshash holat ispan tilida ham kuzatiladi.

Ta’kidlash lozimki, A.F. Kazancheva boshqa bir maqolasida KFBning muqaddas nomlarni anglatib kelishini isbotlab bergan. Muqaddas nomlar ispan frazeologiyasida xususan, qiyosiy jihatdan juda keng tarqalgan. Dryu Loney ta’kidlashicha, Ispaniya diniy mamlakat emas. “Ha, ular katoliklar, lekin ular aqidaparastlar emas, avliyolar kunlarini hisobga olmaganda, ular butparastlik hurmati bilan nishonlanadi”/ «Да, они - католики, но они не фанатики, если не считают дней святых, отмечаемых с языческими почестями» / [Loney, 1999; 1-2].

Ammo KFBni tahlil qila turib, A.F. Kazancheva bir-biriga zid ma’noni ifodalovchi muqaddas nomlar uchrashini ta’kidlaydi: *saber como el Ave María* (so‘zma-so‘z: *Ave-Mariyadek bilmoq*) – *suvday bilmoq, besh qo‘ldek bilmoq*. Rossiyadagi xristian dini boshqa variantni beradi – *знать как отче наш*. Rus madaniyati Isoni *Oллоhdek muqaddas* deb ta’riflaydi, Ispan madaniyati esa – tahqirlangan nomus – *roner a uno como un Cristo* – so‘kmoq, haqorat qilmoq; qattiq urmoq, sog‘ joyini qoldirmasdan savalamoq ma’nosini ifodalaydi [Kazancheva, 2012].

N.N. Repnikovaning tadqiqotida ba’zan bir-birini inkor qiladigan, struktur va semantik mezon o‘zaro qo‘shilgan. Misol uchun, fel so‘z turkumi bilan keluvchi KFB larni kichik sinfiga joylashtirilgan, vaholanki, ular ham substantiv, ham adyektiv bo‘lishlari mumkin. Mazkur maqolasida muallif [Repnikova, 2011] rang nomlarini bildiruvchi *black, white, red* sifatlari komponentlari bilan frazeologik birliklarning semantik diapazonini tasvirlab bergan. Shuningdek, ushbu maqolada asosiy e’tibor ingliz tilidagi otlashgan, sifatlashgan va fe’llashgan frazeologik birliklarning semantik xususiyatlariga qaratilgan.

T.V. Shmeleva adyektiv KFBni qiyoslash etalonining milliy-madaniy o‘ziga xosligi prizmasi orqali tasniflaydi. U o‘z oldiga ingliz tilidagi bunday etalonlarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash maqsadini qo‘yib, u (as)+adj+as+noun tipidagi turg‘un o‘xshatmalarni rus tilining adyektiv turg‘un o‘xshatmalari bilan qiyoslagan

holda funktsional nuqtayi nazardan tahlil qildi. U 7 ta funktsional guruhlarni ajratib ko'rsatgan:

- 1) insonning jismoniy xarakteristikasini bildiruvchi o'xshatishlar;
- 2) predmetning fizik xarakteristikasini aks ettiruvchi o'xshatishlar;
- 3) odamning xarakterini va uning aqliy qobiliyatiga xos jihatlarni aks ettiruvchi o'xshatishlar;
- 4) odamning ruhiy holatini, kayfiyatini xarakterlovchi o'xshatishlar;
- 5) rang, tus, nurning intensivligini bildiruvchi o'xshatishlar;
- 6) moddalarning ta'mga oid xarakteristikalarini ifodalovchi o'xshatishlar;
- 7) predmetlar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi o'xshatishlar.

Demak, T.V. Shmeleva ingliz va rus tillaridagi adyektiv KFBning tahlili orqali bu til sohiblarining o'xshatish etalonlaridagi muhim farqlarni aniqlagan. Bu farqlar ikki madaniyatning farqlari bilan aniqlashtirilgan, ingliz va ruslarning hayoti uchun xarakterli bo'lgan realiyalar bilan, tarixiy voqealar bilan, tabiiy sharoitlar va bu xalqlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liqligi o'rganilgan. A.F. Kazancheva ispan va rus komparativ tizimi haqida ham xuddi shunday farazni bildiradi.

Komparantning qaysi leksik-semantik kichik sinfiga mansubligiga qarab biz bir necha semantik guruhlarini ajratib ko'rsatdik, ulardan biri rang bildiruvchi KFBdir. Rang belgisi bo'yicha predmetlarni o'xshatish (qiyoslash) ko'pincha ispan tilida (*rojo csomo el fuego* (so'zma-so'z: *olovdek qizil*), rus tilida esa – *qondek qizil* KFB yordamida ifodalanadi. Bu KFB da rang sifat bilan berilgan, o'xshatish g'oyasi *como* /*baayni, go'yoki, go'yo, naq, -dek, xuddi, singari, ...o'xshash*/ bog'lovchisi bilan, o'xshatilayotgan predmetlarsa ot bilan ifodalanadi. Har qanday otlar ham KFB tarkibiga kirishlari mumkinmi? Qiyoslash subyektlarining (qiyoslanayotgan predmetlarning) nomlari hisoblangan so'zlarning guruhi leksik jihatdan cheklanmagan: bu yerda boshqa predmetning tusiga o'xshash ma'lum tusga ega bo'lgan har qanday ot bo'lishi mumkin. Qiyoslash obyektlarining (taqqoslash amalga oshiriladigan predmetlarning) nomlari sifatida keluvchi otlarning guruhi esa ma'lum tarzda cheklangan. Qiyoslash obyekti sifatida, odatda, hamma biladigan yoki mashhur bo'lgan predmet tanlanadi, uning rangi o'ziga xos, ko'pincha doimiy belgi hisoblanadi. Ispan tilidagi komparativ rang bildiruvchilarining tahlili shuni ko'rsatadiki, qiyoslash obyekti sifatida, asosan, gul nomlari tanlanadi: *como una rosa – sog'lom, gul-gul ochilgan; como claveles – gilosdek qip-qizil* (lablar haqida), juda chiroyli (qarab to'yamaydigan) (qizlar, ayollar haqida); meva nomlari tanlanadi: *como sandía* (so'zma-so'z: *tarvuz kabi*) – *qip-qizil, qirmizi; como la manzana – dum-dumaloq olma kabi, qizil*. Barcha rang gammasidan komparativda quyidagi sifatlar: *rojo – qizil, blanco – oq, negro – qora, verde – yashil* eng yorqini hisoblanadi va katta variativlik bilan ajralib turadi: *blanco como la nieve/ el jazmín/ la leche/ la call/ la pared/ el nardo/ el yeso/ un mármol/ un muerto – qordek oppoq, negro como un buitire/ el betún/ el azabache/ la noche/ el ébano/ la rena/ la endrina/ el cordobán/ la abutarda/ un vencejo/ un tordo/ una abubilla – qarg'adek qora, rojo como un cangrejo/ la amapola/ un tomate/ una guinda/ la grana / una acerola – qisqichbaqadek qizil*. Rang bildiruvchi predikat hisoblangan *verde* ispan tilida quyidagi o'xshatishlarda uchraydi: *verde como coles – karamdek yashil; verde como lirios – suv nilufariga o'xshash; verde como lechuga – choyyaproq*

salatbargidek; verde como esmeralda – zumrad kabi.

E.A. Malsevaning fikriga ko‘ra, *amarillo, rubio, azul, verde* sifatlari KFBni hosil qilishda yuqori mahsuldor hisoblanadi. *Amarillo* sifati quyidagi komparativlarning tarkibiga kiradi: *como la cera, como la cera virgen, como un muerto, como el oro*. Ulardan dastlabki uchasi ko‘proq so‘lg‘in yuzning xasta, sariq rangini bildiradi [Mal'tseva, 1976].

Azul sifati *azul como el cielo* KFBning tarkibiga kiradi. Osmon obrazi ispan va rus madaniyatida moviy va ko‘m-ko‘k rangning xarakteristikasi uchun an‘anaviy hisoblanadi. U bilan, asosan, ko‘zlar, ba‘zan tashqi olamning predmetlari tavsiflanadi: *ojos azules como el cielo – osmon kabi moviy ko‘zlar*. “Qizil” rang bilan qiyoslashda ispan tilida quyidagicha komparantlar qayd qilingan: *rojo como un tomate* (so‘zma-so‘z: *pomidordek qizil*) *qip-qizil*; *rojo como la grana* (so‘zma-so‘z: *kermes kabi qizil*) – *qisqichbaqa kabi qizil*; *rojo como la sangre* (so‘zma-so‘z: *qondek qizil*) – *qip-qizil, qonday qip-qizil*; *rojo como la manzana* (so‘zma-so‘z: *olmadek qizil*) – *qizil yugurgan, qisqichbaqa kabi qizil*; *rojo como una sandia* (so‘zma-so‘z: *tarvuz kabi qizil*) – *qip-qizil, qirmizi* va b. Rus tilida – *кров, огонь, пламя, пожар, малина, рябина, свёкла, перец, помидор, мясо* (*qon, olov, alanga, o‘t, malina, ryabina, lavlagi qizilcha, garmdori, pomidor, go‘sht*). Ushbu holda *blanco* so‘zi *pálido* ma‘nosida reallashadi: “*Está más blanco que la camisa, Agustinillo*”; “*David estaba blanco como la cera*”. Shuning uchun *pálido* sifatlil KFBda *blanco* bilan bo‘lgani kabi, o‘sha o‘xshatish obrazlari ham uchraydi: “*La muchacha estaba pálida como el mármol*”. *Negro* sifati KFBni hosil qilishda yuqori mahsuldorlikka egadir. Komparant sifatida, odatda, quyidagi obrazlar ishlatiladi: *azabache – aqiq, buitire – qarg‘a, carbón – ko‘mir, hormiga – chumoli, mora – maymunjon, zarza – parmachak, muerte – o‘lim, noche – tun, terciopelo – baxmal, duxoba, alma de Judas – Iuda qalbi, boca de lobo – bo‘rining og‘zi, dolor – qayg‘u, ébano – qora daraxt, endrina – tyorn, tinta – siyoh, nube – qora bulut, tizón – qorakiya* va b. Rus shuuridan *черный, как угол, сажа, смола, агат, ночь, жук, паук, ворон, таракан, сом, черныла, чернозем, чугун, омут, смородина, маслина, негр, сыган* (*qora, ko‘mir kabi, qurum, qorakiya, qatron, smola, chirkay, aqiq, tun, qo‘ng‘iz, o‘rgimchak, qarg‘a, suvarak, laqqa baliq, siyoh, qoratuproq, cho‘yan, o‘pqon, girdob, qorag‘at, zaytun, negr, lo‘li*) kabi o‘xshatishlar o‘rin olgan.

Misollar tahlilidan ko‘rish mumkinki, ikkala tilda o‘xshatishning yetarli darajadagi obrazlari takrorlanadi. So‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan o‘xshatish uchun aynan qaysi konkret obyekt tanlanishi diskurs turi, funksional uslub, so‘zlovchining qiziqishi, o‘xshatishning vazifasi kabi pragmatik omillar bilan belgilanadi. O‘xshatish ham predmetning rang belgisini aniqlashtirish, ham badiiy ifodalilikning vositasi sifatida qo‘llanilishi mumkin. Komparativ oborotlarni o‘rganish, qiyoslashni ifodalashning shakliy vositalari rang-barangligi nuqtayi nazaridan, ham qiyoslash semantikasining sinonimik o‘zgaruvchanligi nuqtayi nazaridan qonuniydir. Bunday xarakterdagi tadqiqotlar tilshunoslikda bir necha marta amalga oshirilgan, biroq komparativ ma‘nodagi frazeologik birliklar soyada qolib ketavergan.

Ta‘kidlash lozimki, qiyosiy daraja faqat sintaktik va morfologik bo‘lib qolmay, balki frazeologik sathda ham namoyon bo‘lishi mumkin, chunki kommunikativ akt uchun leksik, leksik-grammatik, sintaktik yoki frazeologik birliklardan biri tanlanadi.

Ushbu birlik ma'lum bir ma'noni aks ettirishi va muayyan kommunikativ vazifani amalga oshirishi muhimdir.

Turanskiy o'z tadqiqotida kuchaytirish vazifasini bajaruvchi komparativ frazeologik birliklarni tahlil qilib, ularni uchta tamoyil asosida tasniflashni taklif qiladi:

I. Semantik mazmuni bo'yicha:

1. Jonsiz predmetlarning fizik xususiyatlari qiyoslash uchun asos bo'lib xizmat qiladigan qurilmalar: *as light as gossamer*.

2. Tabiat hodisalari bilan o'xshashlikni ifodalovchi komparativ qurilmalar: *as free as the wind*.

3. Fauna vakillari nomlarini o'z ichiga oluvchi qurilmalar, bunda o'xshatish uchun ularning eng tipik jihatlari, qiliqlari, turmush tarzi, ustunlik qiluvchi fizik sifatleri xizmat qiladi: *as slow as a tortoise, as obstinate/ stubborn as a mule*.

4. Bibliyada keltirilgan, afsonaviy syujetlar va tarixiy shaxslar bilan bog'liq allyuziyalar: *as rich as Croesus*.

II. Alliteratsiyaning qo'llanilishi yoki qo'llanmasligiga qarab KFB quyidagilarga bo'linadi:

1. Strukturasida alliteratsiya usuli qo'llaniladigan KFB: *as blind as a bat, as pleased as Punch, as thick as thieves*.

2. Alliteratsiyasiz KFB: *as happy as a lark, as black as sin, as like as two peas*.

III. Ruscha va inglizcha variantlarning muvofiqligi yoki nomuvofiqligiga qarab KFB uchta kichik guruhga ajratilishi mumkin:

1. Qiyoslanayotgan tillarda to'la muvofiqlikni namoyon qiluvchilar (telbalarcha ishlamoq – to work like crazy).

2. Qisman muvofiqlik bilan xarakterlanuvchilar (*mumdek muloyim* – *as soft as butter*; qiyoslang: *as yielding as wax*).

3. Qarab chiqilayotgan variantlar o'rtasida qandaydir muvofiqlikning yo'qligi bilan ajralib turuvchilar (*as dull as ditch-water* – *g'irt diqqatbozlik*) [Turanskiy, 1990].

Komparativ FB to'g'risida A.F. Artyomova muhim mulohazani bildiradi: "Obrazlilik metaforalardagidek implitsit tarzda ifodalanmagan qiyosiy frazeologik birliklar ko'proq ma'noni kuchaytirish vazifasini bajaradilar. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, ularda ma'noni kuchaytirish vazifasi mavjud emotsional-baholash vazifasidan ustunlik qiladi" [Artemova, 1991].

KFBning ushbu vazifasi diskurs tizimida faol qo'llaniladi.

Y.S. Golovkov o'z maqolasida ingliz va rus tillaridagi komparativ frazeologizmlarni chog'ishtirma tahlilga tortgan. Olim komparativ frazeologik birliklarning o'ziga xos struktur xususiyatlarini tahlilga tortib, ingliz tilidagi (as) Adj + as + N st qurilmasining va rus tilidagi Adj + kak + N qurilmasining o'xshashligini aniqlaydi. Ushbu modellar bo'yicha adyektiv komparativ frazeologizmlar hosil qilingan. O'xshashlik, shuningdek, fe'lli komparativ frazeologizmlarning V + like + N va V + kak + N. modellarida ham ko'zga tashlanadi. Semantik nuqtayi nazardan aynan bir xil komparativ FB larni ajratib ko'rsatish mumkin, masalan:

1. Jonsiz predmetlarning fizik xossalari qiyoslash uchun asos bo'lib xizmat qiladigan strukturalar: *light as a feather* – *parday yengil*, *clear as crystal* – *kristalldek*

shaffof, white as sheet – bo‘zday oqarib ketgan, rangi quv o‘chgan, thin as a rake – tarashadek ozg‘in (gotma), sound as a bell – butunlay sog‘lom.

2. Asosida tabiat hodisalari bilan o‘xshatish bo‘lgan komparativ strukturalar: *cold as ice – muzdek sovuq, like the wind – shamol kabi; free as the air – shamoldek erkin, as quick as a flash – yashindek tez.*

3. Fauna vakillarini o‘z ichiga oluvchi strukturalar: *busy as a bee – asalaridek mehnatsevar, eat like a bird – qushdek cho‘qilab yemoq; blind as a mole – krotdek ko‘r; fit as a flea – burgadek sakraydi, as close as oysters – indamas; indamaydi, miq etmaydi, og‘ziga suv (yoki so‘k) olganday jim, gung, strong as a horse – otdek baquvvat.*

4. Ingliz va rus komparativ frazeologizmlarida, shuningdek, bibliyada keltirilgan afsonaviy syujetlar, badiiy asarlarning personajlari bilan bog‘liq allyuziyalarni uchratish mumkin: *grin like a Cheshire cat, as rich as Croesus, блуждать как Лир; влюблённые как Ромео и Джульетта; ревнивый как Отелло* [Golovkov, 2018].

Agar ma‘noning baholash komponenti e‘tiborga olinsa, u holda ham rus tilida, ham ingliz tilida komparativ frazeologizmlarni bir necha guruhlariga ajratish mumkin:

a) ijobiy baholi frazeologizmlar: *(as) bold (или brave) as a lion – храбрый как лев; (as) pretty as a picture – хороша как картинка; gentle as a dove – кроткий как ягнёнок; (as) graceful as a swan – изящный как лебедь; look like a million dollars – прекрасно, блестяще выглядит;*

b) salbiy baholi frazeologizmlar: *(as) cold as ice – холодный как лёд, бесчувственный; (as) fat as a pig – жирный, откормленный как свинья; (as) ugly as sin – страшен как смертный грех; tremble like a leaf – дрожат как осиновый лист; work like a slave – работать как каторжный;*

d) qandaydir bahodan mahrum bo‘lgan, predmetning yoki insonning obyektiv xususiyatlarini aks ettiruvchi frazeologizmlar: *(as) warm as a toast – тёплый, согревшийся; (as) brown as a berry – очень загорелый, шоколадного света; (as) yellow as a guinea – желтый как лимон.*

Y.S. Golovkov ingliz va rus tillaridagi komparativ frazeologik birliklarning struktur va semantik tahlilini amalga oshirib, ular orasida ad‘ektiv hamda fe‘lli frazeologik oborotlar ko‘pchilikni tashkil qilishini aniqlagan. Ko‘pchilik komparativ frazeologik birliklar ijobiy yoki salbiy bahoni ifodalaydilar, bu shu bilan izohlanadiki, frazeologizmlar shunchaki nomlash uchun emas, balki ham real voqelikdagi obyekt xarakteristikasi uchun, ham so‘zlovchining unga munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Har bir milliy tilda badiiy nutqning hissiy-ta‘sirchanligi va obrazlilikini yuzaga keltiruvchi shunday turg‘un so‘z birikmalari kompartiv frazeologik birikma tez-tez uchrab turadiki, ularning paydo bo‘lishi xalqlarning tabiat va jamiyatdagi narsa va voqea-hodisalarga nisbatan qarashlari, munosabatlari bilan mustahkam bog‘liqdir: odamlar narsa va hodisalar dunyosiga nisbatan o‘z munosabatlarini obrazli, hissiy-ta‘sirchan, hayajonli tarzda ifoda etish maqsadida turli-tuman muqoyasaga asoslangan lisoniy vositalardan foydalanadilar. Tasvirlanayotgan shaxs, narsa, xislat-xususiyat, voqea-hodisa va tabiat manzaralari ko‘pincha mubolag‘ali tarzda kitobxonga yaxshi tanish obrazlar bilan muqoyasa qilinadi. Natijada tasvir yanada oydinlashadi, ifodaning

obrazlilik shakllari oshadi, yuqori ta'sirchanlik va hissiy tuyg'u yuzaga keladi [Xaydarova, 2020; 597-599]. D.Z. Xaydarovanning fikricha, turli tillar komparativ frazeologik birliklari tabiatini kuzatish xalqlarda umumiy va xususiy timsollar mavjudligini ko'rsatadi. Ammo bu har qaysi til ifoda vositalarining tarixiy taraqqiyot natijasida mustaqil shakllanganini inkor etmaydi. Turli tillar lisoniy vositalarining o'xshash jihatlari mavjudligi esa xalqlar turmush tarzidagi yaqinlikning ular tillarida o'z aksini topganligi bilan izohlanadi. Binobarin, har bir til o'zigagina xos badiiy-tasviriy vositalariga ega, deyilganda, nafaqat o'zgachalik, balki tillararo sinonimiya ham nazarda tutiladiki, bir tilga xos xususiyatlar o'zga tilga ham mansub bo'lishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda badiiy muqoyasa asosida paydo bo'lgan turg'un so'z birliklari komparativ frazeologik birliklar deb ataladi. Bunday turg'un vositalar ingliz tilida asosan "as", "such as", "as if", "as though", "like", "seem"; rus tilida "-как", "точно", "словно", "будто"; o'zbek tilida "xuddi", "kabi", "bamisoli", "go'yoki", "singari", "-ga o'xshab" kabi ko'makchilar hamda lisoniy birliklarning obrazli asoslariga birikib keladigan -day, -dek qo'shimchalari yordamida hosil bo'ladi [Xaydarova, 2020; 598].

Demak, tarjimada asliyatning badiiy-estetik qimmatini qayta yaratish mas'uliyati tillararo mushtaraklik va o'ziga xoslik xususiyatlarini hisobga olib ish ko'rishni talab qiladi.

Ma'lumki, tafakkur qonuniyatlari butun insoniyat uchun bir xil bo'lib, barcha tillar fikr bayon qilish ehtiyojini imkon qadar to'laroq qondirish yo'lida rivojlana boradilar. Binobarin, xalqlar tafakkur yo'nalishining, hayot tajribasining asosan uyg'unligi, ularning turli-tuman xulq-atvor hamda xislat-xususiyatlarga nisbatan munosabatlarining aksariyat hollarda bir-birlarinikiga o'xshashligi turli tillar tarkibidagi ko'pchilik komparativ frazeologik birliklarning bir xil obrazli asosga ega bo'lib qolishlariga olib kelgan.

Komparativ frazeologik birliklarning obykti bo'lmish timsollarning bu tariqa o'zaro mosligi tillarda muqoyasaviy umumiylikning mavjudligidan dalolat beradi. Binobarin, badiiy muqoyasa asosida hosil bo'lgan ispan va o'zbek tillari frazeologik birliklariga nazar tashlar ekanmiz, ularning ko'pchiligi muqoyasa obyektlariga ko'ra o'xshash ekanligining guvohi bo'lamiz. Jumladan, ispanlar ham, o'zbeklar ham xomsemiz kishilarga salbiy nazar bilan qaraganlari holda, ularni cho'chqaga muqoyasa qiladilar: *Tan gordo como un cerdo* – *Cho'chqaday semiz*. Nihoyatda tezlik timsoli ikki tilda ham mavjud: *A la velocidad de rayo* – *Yashinday tez* [Xaydarova, 2020; 597-599].

Komparativ frazeologik birliklarni tasviriy yo'l bilan talqin qilish kitobxonga ularning ma'nolarinigina yetkazib beradi, uslubiy vazifalarini so'ndirib, ifodalarni badiiy-tasviriy xususiyatini namoyon etadi.

G.Mustayeva tadqiqoti fransuz tili materiali asosida *Homme, femme va enfant* tarkibli spontan obrazli o'xshatishlarning shakllanish qonuniyatlarini semantik va kognitiv aspektlarda aniqlash hamda ularning mazmunini tizimlashtirishga bag'ishlangan [Mustayeva, 2019].

Tadqiqotchil ushbu dissertatsiyada obrazli o'xshatish strukturasida ishtirok etadigan so'zlarning semantik tavsiflari ustida to'xtalgan. Bunday obrazli o'xshatishlarda harakat, sifat yoki holatdan biri bo'yicha umumiylikka ega bo'lgan

yoki qaysidir semantik tavsiflari bo'yicha bir-biridan farq qiladigan ikkita predmet o'zaro qiyoslanadi. Dissertant tadqiqotda obrazli o'xshatishlarning fransuz tilida 40 dan ziyod leksik birliklar (*comme, comme si, pareil, semblable, en, à la, va h.z. va b.*) vositasida voqelanishini asoslab bergan. Muallif dissertatsiyada faqat *comme* so'zi vositasida shakllangan obrazli o'xshatishlarni keng yoritib berishga harakat qilgan. Masalan: *Elle était obstinée comme une mule, l'avait toujours été, d'un enfant – U eshakday o'jar, hamma vaqt, bolalik davridan buyon, shunaqa bo'lgan*. Aytish joizki, obrazli o'xshatishlarning shakllanishi va tabiatini o'rganish munosabati bilan lingvistik adabiyotlarda murakkab nazariy masalalarga e'tibor qaratmoqda, ammo ulardan ayrimlari, masalan, spontan obrazli o'xshatish tushunchasi va uning shakllanish asosida yotuvchi semantik va kognitiv omillar, lingvistik obraz tushunchasi va ularning rang-barang talqiniga aniqlik kiritib olishni joiz, deb hisoblaydi tadqiqotchi.

A.Mamatov va B.Boltayevalarning fikricha, ba'zan frazeologizmlar tarkibiga turli o'xshatishli konstruksiyalarni kiritish bilan ular murakkablashadi: *So'ngra do'ppini katta og'iz chakagi uzilgan eski kavushdek tanobi qochib turgan yonidagi xotiniga uzatdi* (Shuhrat). Tilimizda tarkibi jihatidan to'liq bo'lgan og'zining tanobi qochmoq frazeologizmi mavjudligi ma'lum. Yozuvchi shu frazeologizm tarkibiga chakagi uzilgan eski kavushdek o'xshatishli konstruksiyani kiritgan. Bu esa matnda ma'lum komik jarayonni yuzaga keltirishga, stilistik mahsuldorlikning oshishiga xizmat qilgan. Quyidagi keltiriladigan matnda ham frazeologizm tarkibiga o'xshatishli konstruksiya kiritish bilan frazeologizm murakkablashgan: *Ko'zi urishqoq xo'rozning tojisiday qonga to'ldi. Yo'q, eshitmasin, – dedi qat'iy qilib Sodiq va balanddan keldi* (Shuhrat). Tilimizdagi ko'ziga qon to'lmoq frazeologizmi tarkibiga xo'rozning tojisiday o'xshatishli konstruksiyani kiritish bilan stilistik mahsuldorlikka erishilgan [Mamatov & Boltayeva, 2018; 100].

Ma'lumki, mavjud ko'pgina tadqiqotlarda qiyoslash bir predmetni boshqasiga o'xshatishdan iborat stilistik vosita, degan fikr qaror topgan. Ammo bu tadqiqotlarda bunday o'xshatishlar qaysi maqsadda qilinayotgani ko'rsatilmaydi. Fikrimizcha, o'xshatish, eng avvalo, qandaydir belgini hodisaga nisbatlashning muhim vositasidir. Bir predmet yoki hodisani boshqasiga o'xshatish birdan bir maqsad bo'lmasdan, shu belgini, ya'ni obrazni taqdim etish vositasidir.

V.V. Yakovlevaning dissertatsion tadqiqoti qiyosiy konstruksiyada *como* bog'lovchisi bilan kelgan frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berishga bag'ishlangan bo'lib, unda ispan tilining piriney milliy variantida ifodalangan *como* bog'lovchisi yordamida lisoniy olamning milliy-madaniy holatining aks etishi komparativ frazeologik birikma asosida keng yoritib berilgan. Tadqiqotda ispan tilining piriney milliy variantida KFBning milliy-madaniy holati tahlil qilingan bo'lib, unda KFBning struktur tiplari, semantik va stilistik imkoniyatlari atroflicha izohlab berilgan.

N.V. Kulikova o'z maqolasida zamonaviy ingliz tilida komparativ frazeologik birliklarni ikki semantik yondashuv asosida tahlil qilgan. Komparativ frazeologik birliklar modelining zamonaviy mahsuldorligi haqidagi farazni sinab ko'rish uchun so'nggi 7-10 yil ichida 520 ta frazeologik birlikdan iborat korpus to'plangan. Ushbu korpus uchun lisoniy materiallar tanlov metod yordamida yig'ilgan. Ingliz tilidagi

KFB modellashtirish jarayoni quyidagi sxemada o'z aksini topgan:

1. Komparativ frazeologik birlikma: *busy as a bee – mehnatkash odam; asalaridek band*.

2. Asosiy belgilar: doim bandlik, o'yin-kulgi va dam olishdan ko'ra ishni afzal ko'rish, dam olish uchun oz vaqt ajratish, bo'sh vaqtni yoqtirmaslik va boshqalar.

3. Bu holatda to'g'ri hayot tarzini tanlash holati aniq ko'rinadi: ko'p madaniy holatlarda asalari mehnatsevarlik ramzi hisoblanadi. Albatta, ingliz madaniyati ham bundan mustasno emas.

4. Mavzu va tasvirning uyg'unlashuvi.

5. *As...as* yuklamasi yordamida similyatsiyani aniq rasmiylashtirish.

6. Natija: (*as*) *busy as a bee* komparativ frazeologik birikmasi [Kulikova, 1998]. Til materialining tahlili shuni ko'rsatdiki, frazeologik birliklarni yaratishning qiyosiy modeli zamonaviy ingliz tilida juda samarali. www.urbandictionary.com elektron resursida so'nggi 7 yil ichida ingliz tilini to'ldirgan 400 dan ortiq komparativ frazeologik birliklar mavjudligi kuzatilgan. Shuni ham ta'kidlash kerakki, ikkita leksik-sintaktik variantdan – *as...as* va *like* ko'p qo'llanishi aniqlangan. Ulardan *like* lisoniy birligi o'ta mahsuldor hisoblanishi ma'lum bo'ldi. Korpus uchun to'plangan KFB shuni ko'rsatganki, *as...as* 15% ni, *like* esa 85% foizni tashkil etgan.

XULOSA

Maqolamizni qisqacha xulosalab, ta'kidlash mumkinki, frazeologik qiyoslashlarda ishlatiladigan otlar o'xshash semantik tabiatga egadirlar va konnotativ otlar hisoblanadilar, ular til jamoasi a'zolarida ushbu otlarga xos bo'lgan belgilar bilan assotsiatsiyalanadilar. Predmetlarni va obyektiv borliqning hodisalarini identifikatsiya qiluvchi otlardan farqli ravishda, yuqorida qayd qilingan birliklar nafaqat denotativ, balki signifikativ ma'noga ham egadirlar va muayyan belgilarni bildiradilar. Tilimizning leksik, semantik, lingvokulturologik tabiatini hamda boy ifoda imkoniyatlarini tadqiq etishda o'xshatishlarning o'rni beqiyosdir va ularning kognitiv jihatlarini o'rganish tilshunosligimizdagi galdagi vazifalardan hisoblanadi. Komparativ frazeologik birliklar tadqiqotining metodologik va nazariy jihatlarining tahlili quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

1) komparativ frazeologik birliklar rus, ispan va ingliz tillarida ham struktur, ham semantik sathlarda muayyan o'xshashlikka egadirlar;

2) ko'pchilik komparativ frazeologizmlarga stilistik belgi mavjud va ular emotsional-ekspressiv jihatdan nozik farqlarga egadirlar;

3) komparativ frazeologizmlar frazeologik tizimining o'ziga xos milliy xarakterini ko'rsatib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Artemova, A.F. (1991). Znachenije frazeologicheskix yedinit i ix pragmaticheskij potencial. *Dis. dok. filol. nauk*. Sankt Peterburg.
2. Babanazarova, S.A. (2021). O'xshatishlarning tilshunoslikdagi tadqiq yo'nalishlari. "Zamonaviy lingvistik tadqiqotlar: xorijiy tajriba istiqbolli izlanishlar va tillarning o'qitishning innovatsion usullari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Samarqand: Samarqand davlat chet tillari instituti.

3. Denisova, G.L. (2009). Kognitivniy mexanizm sravneniya v nemetskom yazyke. *Avtoref. dok. filol. nauk*. Samara.
4. Fedoseyeva, P.N., Kovaleva, S.M., Panova, V.G. (1983). *Sovetskaya ensiklopediya*. Moskva.
5. Golovkov, Y.S. (2018). *Struktura i semantika komparativnykh frazeologizmov v angliyskogo i russkogo yazykax*. Moskva.
6. Ilicheva, L.F. (2005). *Filosofskiy ensiklopedicheskiy slovar*. Moskva.
7. Kazancheva, A.F. (2012). *Semanticheskaya klassifikatsiya KFE*. Pyatigorsk: Pyatigorskiy gosudarstvennyy lingvisticheskiy universitet.
8. Lebedova, L. (2003). *Ustoychivye sravneniye russkogo yazyka: kratkiy tematicheskiy slovar*. Krasnodar.
9. Loney, D. (1999). *Eti strannye ispansy*. Moskva.
10. Mahmudov, N. (2011). O'xshatishlar - obrazli tafakkur mahsuli. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 3, 202-205. Toshkent.
11. Mahmudov, N. (2012). *Tilimizning tilla sandig'i*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
12. Mahmudov, N., Xudoyberganova, D. (2013). *O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati*. Toshkent: "Ma'naviyat" nashriyoti.
13. Mal'tseva, Y.A. (1976). O sochetayemosti ustoychivyx komparativnyx struktur sovremennogo ispanskogo yazyka. *Sbornik nauchnyx trudov*, 100. Moskva.
14. Mokiyenko, V.M. (2003). *Slovar sravneniy russkogo yazyka*. Sankt Peterburg.
15. Mukarramov, M. (1976). *O'zbek tilida o'xshatish*. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
16. Ogolsev, V. (2001). *Slovar ustoychivyx sravneniy russkogo yazyka (sinonimo-antonimicheskiy)*. Moskva.
17. Potebnya, A.A. (1990). *Teoreticheskaya poetika*. Moskva.
18. Qo'ng'urov, R. (1977). *O'zbek tilining tasviriy vositalari*. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
19. Repnikova, N.N. (2011). Semanticheskiy diapazon frazeologicheskikh yedinitis s komponentom prilagatel'nym tsvetonaimenovaniyem black, white, red. *Avtoref. kand. diss. filol. nauk*. Moskva.
20. Shmeleva, T.V. (1988). *K probleme natsionalno-kulturnoy spetsifiki "etalona" sravneniya (na materiale angliyskogo i russkogo yazykov)*. Moskva.
21. Sokolova, K.A. (2012). Ustoychivye komparativnye konstruksii s svetovim komponentom "krasny" v ispanskoy yazyke (na fone drugix romanskix yazykov). *Vestnik Moskovskogo gosudarstvennogo lingvisticheskogo universiteta*, 24(710), 285-295.
22. Usmonova, Sh. (2019). *Lingvokulturologiya*. Toshkent.
23. Usmonova, Sh. (2013). Tanqid va taqriz. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 5, 99-101. Toshkent.
24. Xaydarova, D.Z. (2020). Frazeologicheskiye komparativnye yedinitisy i ix perevod. *Nauchnyy zhurnal "Molodoy uchenyy"*, 18(308), 597-599.
25. Xudoyberganova, D. (2013). *Matnning antropotsentrik tadqiqi*. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
26. Yoqubbekova, M. (2003). *O'zbek xalq qo'shiqlarida o'xshatish*. Toshkent: "Fan" nashriyoti.

REFERENCES

1. Artemova, A.F. (1991). The meaning of phraseological units and their pragmatic potential. *DSc thes. philol. scien*. Saint Petersburg.
2. Babanazarova, S.A. (2021). Research directions of similes in linguistics. In *Modern linguistic research: foreign experience, prospective research and innovative methods of language teaching* International Scientific-Practical Conference on. Samarkand: Samarkand State Institute of Foreign Languages.
3. Denisova, G.L. (2009). Cognitive Mechanist of Comparison in German. *Abs. DSc thes. philol. scien*. Samara.
4. Fedoseyeva, P.N., Kovaleva, S.M., Panova, V.G. (1983). *Soviet encyclopedia*. Moscow.
5. Golovkov, Y.S. (2018). *Structure and semantics of comparative phraseology in English and*

- Russian languages*. Moscow.
6. Haydarova, D.Z. (2020). Phraseological comparative units and their translation. *Scientific Journal of Young Scientist*, 18(308), 597-599.
 7. Ilicheva, L.F. (2005). *Philosophical encyclopedic dictionary*. Moscow.
 8. Kazancheva, A.F. (2012). *Semantic classification of CPhU*. Pyatigorsk: Pyatigorsk State Linguistic University.
 9. Khudoyberganova, D. (2013). *An anthropocentric study of the text*. Tashkent: Publishing House of 'Science'.
 10. Kongurov, R. (1977). *Visual means of the Uzbek language*. Tashkent: Publishing House of 'Science'.
 11. Lebedova, L. (2003). *Sustainable comparison of the Russian language: a short thematic dictionary*. Krasnodar.
 12. Loney, D. (1999). *These strange spains*. Moscow
 13. Mahmudov, N. (2011). Similes are a product of figurative thinking. *Journal of the Uzbek Language and Literature*, 3, 202-205. Tashkent
 14. Mahmudov, N. (2012). *The golden chest of our language*. Tashkent: Publishing house named after Gafur Gulam.
 15. Mahmudov, N., Khudoyberganova, D. (2013). *Explanatory dictionary of Uzbek language similes*. Tashkent: Publishing House of 'Spirituality'.
 16. Maltseva, Y.A. (1976). On the compatibility of stable comparative structures of the modern spanish language. *Collection of scientific papers*, 100. Moscow.
 17. Mokiyeenko, V.M. (2003). *Dictionary of comparisons of the Russian language*. Saint Petersburg.
 18. Mukarramov, M. (1976). *Simile in Uzbek*. Tashkent: Publishing House of 'Science'.
 19. Ogolsev, V. (2001). *Dictionary of stable comparisons of the Russian language (synonymous-antonymous)*. Moscow.
 20. Potebnya, A.A. (1990). *Theoretical poetics*. Moscow.
 21. Repnikova, N.N. (2011). Semantic rank of phraseological units with adjective color naming component black, white, red. *Abs. cand. dis. philol. scien*. Moscow.
 22. Shmeleva, T.V. (1988). *To the problem of national and cultural specificity "standard" comparison (on the material of English and Russian languages)*. Moscow.
 23. Sokolova, K.A. (2012). Sustainable comparative constructions with worldly components "red" in the Spanish language (no background of other Romance languages). *Bulletin of the Moscow State Linguistic University*, 24(710), 285-295.
 24. Usmanova, Sh. (2013). Criticism and review. *Journal of the Uzbek Language and Literature*, 5, 99-101. Tashkent.
 25. Usmanova, Sh. (2019). *Linguistic culture*. Tashkent.
 26. Yakubbekova, M. (2003). *Simile in Uzbek folk songs*. Tashkent: Publishing House of 'Science'.